

**SERGEY YESENIN VA ERKIN VOHIDOV SHE’RIYATIDA SHOIR QALBINING
BADIY-FALSAFIY TALQINI**

Sattarova Sevara Olimovna
Samarqand davlat Chet tillar instituti, mustaqil izlanuvchisi
E-mail: sevka_sso@mail.ru
Tel: +998902850195

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21212221>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sergey Yeseninning “Shoir bo’lmoq...” hamda Erkin Vohidovning “Shoir qalbi” she’rlari qiyosiy-tipologik tahlil asosida o’rganiladi. Tadqiqotda har ikki shoir ijodida shoir shaxsining badiiy talqini, iste’dod tabiati, ijod va iztirob munosabati hamda isyon motivining poetik-falsafiy mazmuni yoritiladi. She’rlardagi lirik qahramon ruhiyati, shoirning jamiyat va insoniyat oldidagi ma’naviy mas’uliyati, ijodkor qalbining ichki kechinmalari badiiy obrazlar tizimi orqali tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: shoir qalbi, badiiy-falsafiy talqin, Sergey Yesenin, Erkin Vohidov, iste’dod tabiati, isyon motivi, ijod va iztirob, qiyosiy-tipologik tahlil.

Аннотация: В данной статье на основе сравнительно-типологического анализа исследуются стихотворения Сергея Есенина «Быть поэтом — это значит...» и Эркина Вахидова «Сердце поэта». Особое внимание уделяется художественной интерпретации личности поэта, природе таланта, взаимосвязи творчества и душевных страданий, а также поэтико-философскому содержанию мотива бунта. Анализируются внутренний мир лирического героя, нравственная ответственность поэта перед обществом и человечеством, а также духовные переживания творческой личности, воплощённые в системе художественных образов.

Ключевые слова: поэтическая личность, художественно-философская интерпретация, Сергей Есенин, Эркин Вахидов, природа таланта, мотив бунта, творчество и страдание, сравнительно-типологический анализ.

Abstract: This article examines Sergey Yesenin’s poem “To Be a Poet Means...” and Erkin Vahidov’s poem “The Poet’s Heart” through a comparative-typological approach. Particular attention is paid to the artistic interpretation of the poet’s personality, the nature of talent, the relationship between creativity and suffering, and the poetic-philosophical meaning of the motif of rebellion. The study analyzes the inner world of the lyrical hero, the poet’s moral responsibility to society and humanity, and the spiritual experiences of the creative individual as reflected in the system of artistic images.

Keywords: poet’s personality, artistic and philosophical interpretation, Sergey Yesenin, Erkin Vahidov, nature of talent, motif of rebellion, creativity and suffering, comparative-typological analysis.

Kirish. XX asr rus she’riyatining yorqin vakillaridan biri Sergey Yesenin hamda zamonaviy o’zbek adabiyotining yirik namoyandasi Erkin Vohidov ijodida shoir qalbi masalasi alohida badiiy-falsafiy mazmun kasb etadi. Har ikki ijodkor she’riyatni inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ifodalovchi ma’naviy hodisa sifatida talqin qiladi. Biroq ularning shoir va shoirlik haqidagi qarashlari bir xil poetik asosga ega bo’lishiga qaramay, mazmun va ifoda jihatidan muayyan farqlarga ham ega. Ayniqsa, Sergey Yesenin “Shoir bo’lmoq...” hamda Erkin Vohidovning “Shoir qalbi” she’rlarida ijodkor

shaxsining mohiyati, iste’dodning ichki harakatlantiruvchi kuchi va ruhiy iztirob manbalari turli badiiy vositalar orqali ochib beriladi.

Bugungi adabiyotshunoslikda shoir obrazining poetik funksiyalari, lirik qahramon ruhiyati va ijod falsafasi masalalari keng o’rganilgan bo’lsa-da, Yesenin va Vohidovning mazkur she’rlari asosida shoir qalbining badiiy-falsafiy talqinini qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan tadqiq etish alohida ilmiy qiziqish uyg’otadi. Chunki bu she’rlar turli milliy adabiy an’analarga mansub bo’lishiga qaramay, ularda ijodkorning ichki olami, iste’dod mas’uliyati va ma’naviy kurashi mushtarak poetik kategoriyalar sifatida namoyon bo’ladi.

Tadqiqotning asosiy muammosi shundan iboratki, har ikki she’rda shoir shaxsi markaziy o’ringa chiqarilgan bo’lsa-da, uning badiiy talqini turlicha konseptual asosga qurilgan. Yesenin she’rida shoirlik, avvalo, ruhiy iztirob, ichki fidoyilik va o’z ovozig a sodiqlik orqali namoyon bo’lsa, Vohidov talqinida shoir qalbi insoniyatning ezgu orzu-intilishlari, haqiqatga intilish va ma’naviy isyonning ramziga aylanadi. “Har bir yosh havaskor shoirlar yozadigan mavzulari barchamizga ma’lum. Vatan, tabiat, ota, ona, va hakazolar... Bular esa doimo tayyor tuyg’ular. Lekin mana shu tuyg’ularning taqdiri, qismati his qilinish va ifodalanish darajasiga bog’liq” [Boboqulova. 2025: 60]. Mazkur farq va mushtarakliklarning poetik mohiyatini ochish tadqiqotning asosiy ilmiy vazifasini tashkil etadi.

Maqolaning maqsadi Sergey Yesenin va Erkin Vohidovning yuqoridagi she’rlari misolida shoir qalbining badiiy-falsafiy talqinini qiyosiy tahlil qilish hamda ijodkor shaxsining poetik konsepsiyasini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini qiyosiy adabiyotshunoslik, poetik tahlil, lirik qahramon nazariyasi hamda badiiy obraz konsepsiyasiga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot davomida qiyosiy-tipologik, tavsifiy-tahliliy va germeneytik yondashuvlardan foydalaniladi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda Sergey Yesenin va Erkin Vohidovning shoirlik konsepsiyasini ifodalovchi ikki she’r ilk bor o’zaro qiyosiy-tipologik aspektida tadqiq etilib, shoir qalbi talqinining individual-psixologik hamda ijtimoiy-falsafiy qirralari bir butun poetik tizim sifatida yoritiladi. Tadqiqot natijalari rus va o’zbek she’riyatida ijodkor shaxsining badiiy modeli, iste’dod tabiati hamda ma’naviy isyon fenomenini chuqurroq anglashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotshunoslikda lirik asar inson ruhiyati, qalb kechinmalari va estetik tafakkurining badiiy ifodasi sifatida talqin etiladi. Shu bois lirik she’riyatni tahlil qilishda voqea-hodisalar emas, balki lirik qahramonning ichki dunyosi, hissiy kechinmalari va ruhiy holati markaziy o’ringa chiqadi. “Lirik asarning asosiy obyekti tashqi voqelik emas, balki inson qalbida kechayotgan ruhiy jarayonlardir” [Quronov, 2019: 269]. Xususan, Sergey Yeseninning “Shoir bo’lmoq...” hamda Erkin Vohidovning “Shoir qalbi” she’rlarining diqqat markazida ham tashqi voqelik emas, balki shoirning ma’naviy dunyosi, ijodkorlik mohiyati va iste’dod tabiati turadi.

Lirik she’riyatning o’ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda muallif shaxsiyati va lirik qahramon o’rtasida murakkab munosabat yuzaga keladi. D.Quronov lirik qahramonni muallifning aynan o’zi emas, balki uning badiylashtirilgan “meni” sifatida tavsiflaydi [Quronov, 2019: 271–272]. Shuning uchun Yesenin va Vohidov she’rlaridagi shoir obrazini bevosita muallif tarjimai holi bilan tenglashtirish to’g’ri bo’lmaydi. Biroq mazkur obrazlar ijodkorlarning estetik qarashlari, hayot falsafasi va shoirlik haqidagi tasavvurlarini badiiy umumlashtirgan holda aks ettiradi. Natijada har ikki she’rda ham

shoir obrazi individual shaxs chegarasidan chiqib, badiiy-falsafiy konsepsiya darajasiga ko’tariladi.

Sergey Yeseninining “Shoir bo’lmoq...” she’rida shoirlik inson zimmasiga yuklangan murakkab ma’naviy mas’uliyat sifatida talqin qilinadi. Asarda ijodkorning vazifasi o’z qalbida kechayotgan og’riq va iztiroblarni badiiy haqiqatga aylantirishdan iboratdek tasvirlanadi. Shoirning ruhiy dunyosi uning ijodiy faoliyatining asosiy manbai sifatida namoyon bo’ladi. Shu sababli Yesenin talqinida shoirlik iste’dodning o’zi emas, balki iste’dod uchun to’lanadigan ruhiy badal, ichki fidoyilik va ma’naviy jasorat bilan belgilanadi. Shoir boshqalarga zavq ulashar ekan, avvalo o’z qalbining og’riqlarini boshdan kechiradi. Bu esa shoir fenomenining individual-psixologik mohiyatini yuzaga chiqaradi.

Erkin Vohidovning “Shoir qalbi” she’rida esa shoir obrazi yanada kengroq falsafiy mazmun kasb etadi. Asarda borliqdagi barcha harakat va taraqqiyotning asosi sifatida talqin etilgan isyon ruhi ijodkor tabiatining ham ajralmas qismi sifatida ko’rsatiladi. Shoir qalbi faqat shaxsiy kechinmalar makoni emas, balki insoniyatning ezgu orzulari, armonlari va ma’naviy intilishlarini o’zida mujassamlashtirgan ruhiy makon sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan Vohidov she’ridagi shoir obrazi individual “men” doirasidan chiqib, umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarning ifodachisiga aylanadi.

H. Umurov lirik qahramonni shoir shaxsi va uning estetik idealining badiiy birligi sifatida tavsiflaydi [Umurov, 2004: 106–107]. Mazkur nazariy qarash har ikki she’r mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Yesenin she’rida lirik qahramon ijodkorning ichki iztiroblari va ruhiy kechinmalarini ifodalasa, Vohidov she’rida u insoniyatning ma’naviy orzu-intilishlarini o’zida mujassamlashtiradi. Binobarin, har ikki shoir uchun ham shoirlik oddiy kasb yoki estetik faoliyat emas, balki yuksak ma’naviy maqom va alohida ruhiy holatdir.

Qiyosiy tahlil shuni ko’rsatadiki, Yesenin va Vohidov shoir fenomenini talqin etishda umumiy poetik nuqtaga ega. Har ikki ijodkor shoirni voqelikni boshqalardan teranroq his qiladigan, jamiyatning ma’naviy ehtiyojlarini ilg’aydigan hamda inson qalbidagi eng nozik tuyg’ularni badiiy so’z vositasida ifodalashga qodir shaxs sifatida tasvirlaydi. Biroq Yesenin talqinida shoir qalbi ko’proq individual ruhiy kechinmalar markazida gavdalansa, Vohidov poetikasida u umuminsoniy ma’naviyat va ezgulik g’oyalarining badiiy timsoli darajasiga ko’tariladi. Ana shu mushtaraklik va tafovutlar mazkur she’rlarning badiiy-falsafiy qimmatini belgilovchi muhim poetik omillardan biri hisoblanadi.

Badiiy ijod tabiatini anglashga qaratilgan adabiy-estetik qarashlarda iste’dod va iztirob o’rtasidagi bog’liqlik alohida o’rin egallaydi. Ko’plab adib va mutafakkirlar ijod jarayonini inson ruhiyatining eng murakkab, eng ziddiyatli holatlari bilan bog’laydilar. Rasul Hamzatov ijod jarayonining murakkab tabiatini sharhlar ekan, “Yozish azobi tug’ish to’lg’og’iga o’xshaydi”, deb ta’kidlaydi [Hamzatov, 1981: 20]. Mazkur qarash badiiy ijodning inson ruhiyatida kechadigan murakkab va ziddiyatli jarayon ekanligini anglatadi. Shu jihatdan Sergey Yesenin va Erkin Vohidov she’riyatida ham ijod manbai sifatida qalbiy iztirob, ma’naviy mas’uliyat hamda ruhiy jo’shqinlik talqin etiladi. Sergey Yeseninining “Shoir bo’lmoq – bu-ku tayin gap...” she’rida shoirlik ruhiy fidoyilik va ma’naviy qurbonlik sifatida tasvirlanadi. Shoirning fikricha, chinakam she’riyat qalb azobi va ichki kechinmalar evaziga yaratiladi:

Shoir bo’lmoq — bu-ku tayin gap —

O’z joningni o’rtamoq faqat.

Xanjar urib nozik taningga,

O’zgalarga baxsh etmoq lazzat [Yesenin,1971:93]

Mazkur misralarda shoirlikning mohiyati badiiy paradoks orqali ochiladi: *“Xanjar urib nozik taningga, O’zgalarga baxsh etmoq lazzat”* tarzidagi poetik ifodada ijodkorning o’zi iztirob chekadi, biroq uning ruhiy kechinmalari boshqalarga estetik zavq bag’ishlaydi. *“Xanjar”* obrazi iste’dodning og’ir mas’uliyati va ijodkor qalbining jarohatlarini ifodalovchi ramziy timsol sifatida namoyon bo’ladi. Natijada Yesenin poetikasida ijod ruhiy og’riqni badiiy haqiqatga aylantiruvchi ma’naviy hodisa sifatida talqin qilinadi.

Yesenin poetikasida ijodning muhim sharti sifatida samimiyat va ichki haqiqatga sodiqlik ilgari suriladi. Shoir o’z ovozi yo’qotmasligi, o’zgalarning ohangini takrorlamasligi lozim. Shu sababli asarda ijodkorning eng katta mas’uliyati san’atkor sifatida o’zligini saqlab qolish bilan belgilanadi. Bu jihat Yesenin she’riyatidagi individualizmning muhim ko’rinishlaridan biridir. Shoir qalbida tug’ilgan dard va kechinma boshqa birovning emas, aynan uning o’z ruhiy tajribasining mahsuli bo’lishi kerak. Ana shundagina u badiiy haqiqat darajasiga ko’tariladi.

Erkin Vohidovning *“Shoir qalbi”* she’rida iste’dod va iztirob o’rtasidagi bog’liqlik falsafiy umumlashmalar orqali ifodalanadi. Shoir borliq taraqqiyotining manbayini qarama-qarshiliklar kurashida ko’radi. Xususan:

Qora bulut zulumatga

Chulg’aganda samoni,

Chaqmoq — nursiz bu hayotga

Yorug’likning isyon [Vohidov,2016:158].

Mazkur misralarda zulmat va yorug’lik o’rtasidagi ziddiyat ramziy ma’no kasb etib, inson ruhiyatidagi ijodiy harakatning badiiy modeliga aylanadi. Shoir nazarida taraqqiyot ham, ma’naviy yuksalish ham mavjud holatga murosasiz munosabatdan boshlanadi. Shu bois she’rda iste’dodning mohiyati quyidagi satrlarda falsafiy xulosa sifatida ifodalanadi:

Yaralishdan,

Iste’dodning —

Tabiati — isyondir [Vohidov,2016:158].r.

Bu o’rinda *“isyon”* tushunchasi ijtimoiy norozilik ma’nosida emas, balki insonning haqiqat, komillik va ezgulikka intilishidan tug’iladigan ichki ruhiy harakat sifatida talqin qilinadi. Demak, Vohidov poetikasida iste’dod ruhiy xotirjamlik emas, balki doimiy izlanish, ichki kurash va ma’naviy bezovtalik mahsuli sifatida namoyon bo’ladi. Shu jihatdan shoir qalbi borliqdagi ziddiyatlarning aks-sadosi emas, balki ularni harakatga keltiruvchi ijodiy kuch sifatida talqin etiladi.

Erkin Vohidovning *“Shoir o’zi yonmasa, boshqalarni yondirolmaydi”* [ps://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/bahodir-karim-adabiy-fikr-javhari.html] degan fikri ham aynan shu poetik qarashning nazariy ifodasidir. Shoir qalbidagi *“otash”* ijodkorning ichki energiyasi, ma’naviy quvvati va ruhiy iztiroblarini anglatadi. Demak, Vohidov talqinida ham chinakam she’riyat inson qalbini larzaga soladigan ichki kechinmalarsiz yuzaga kelmaydi. Bu jihatdan Yesenin va Vohidov qarashlari bir nuqtada tutashadi.

Har ikki she’rda ijodning muhim manbalaridan biri sifatida vaqt davomida qallda pishib yetilgan ruhiy tajriba tasvirlanadi. Rasul Hamzatovning *“Butun umr qallda*

saqlanadigan she’r bir o’tirishda yoziladi” degan fikri [Hamzatov, 1981: 7] mazkur holatni chuqurroq anglash imkonini beradi. Tashqi tomondan she’r qisqa fursatda yaratilgandek ko’rinsa-da, uning ildizlari ijodkor qalbida uzoq vaqt davomida shakllanadi. Yeseninining iztirobli e’tiroflari ham, Vohidovning isyonkor falsafasi ham ana shunday uzoq ruhiy tajriba mahsuli sifatida namoyon bo’ladi.

Tahlil natijasi shuni ko’rsatadiki, Yesenin va Vohidov she’riyatida ijodning ruhiy manbalari mushtarak asosga ega. Har ikki shoir iste’dodni inson qalbidagi ichki olov, ruhiy bezovtalik va ma’naviy mas’uliyat bilan bog’laydi. Biroq bu mushtaraklik turlicha poetik shakllarda namoyon bo’ladi. Yesenin uchun ijodning manbayi ko’proq individual dard va shaxsiy kechinmalar bo’lsa, Vohidov uchun u insoniyatning ma’naviy takomilga intilishi va ezgulik yo’lidagi ichki isyonidan oziqlanadi. Shu tariqa har ikki shoir ijod va iztirob o’rtasidagi uzviy bog’liqlikni e’tirof etgan holda, shoir qalbining ruhiy manbalarini turli badiiy-falsafiy rakurslarda yoritadilar.

Xulosa. Sergey Yeseninining “Shoir bo’lmoq – bu-ku tayin gap...” hamda Erkin Vohidovning “Shoir qalbi” she’rlari qiyosiy tahlili har ikki ijodkor poetikasida shoir fenomeni yuksak ma’naviy mas’uliyat va ruhiy fidoyilik bilan bog’liq holda talqin etilishini ko’rsatdi. Tadqiqot davomida ijodning asosiy manbai sifatida ruhiy iztirob, ichki kechinma va ma’naviy izlanish motivlari muhim o’rin tutishi aniqlandi.

Tahlillar natijasida Yesenin she’riyatida shoir qalbi individual ruhiy tajriba va shaxsiy iztiroblar orqali ochilsa, Vohidov poetikasida u umuminsoniy qadriyatlar hamda ma’naviy isyon konsepsiyasi bilan bog’liq holda talqin etilishi kuzatildi. Shu bilan birga, har ikki shoir iste’dod mohiyatini qalb haqiqatiga sodiqlik, ichki yonish va ijodiy mas’uliyat bilan bog’laydi.

Tadqiqot natijalari rus va o’zbek she’riyatida ijodkor shaxsining badiiy-falsafiy talqinidagi mushtarak va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Hamzatov R. Mening Dog’istonim. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1981. – 320 b.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Noshir, 2019. – 338 b.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Xalq me’rosi, 2004. – 264 b.
4. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Toshkent: Muharrir, 2011. – 232 b.
5. Yesenin S. Zamin darg’asi. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1971. – 136 b.
6. Vohidov E. Saylanma. 6 jildlik. 1-jild. She’rlar. – Toshkent: Sharq, 2016. – 496 b.

Foydalanilgan internet manbalar:

7. Karim B. Adabiy fikr javhari yoxud Erkin Vohidovning adabiy-estetik qarashlariga bir nazar. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/bahodir-karim-adabiy-fikr-javhari.html>
8. Vohidov E. Hayot va she’riyat haqida. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/bahodir-karim-adabiy-fikr-javhari.html>
9. Boboqulova U. Mo’tabar siymoning samoviy talqini. <https://www.scribd.com/document/974920833/%D0%A1%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D1%8F-30666-Ru>